



NATIONAL AWAKENING AND ENTIGHENMENT

Dilfuza Mukhammadinovna Nasretidinova

Associate Professor, c.h.s.

University of Business and Science

dilfuza.nasretidinova@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan region, Russian Empire, Jadid movement, Tatar enlighteners, women's education, Jadid girls' schools.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article provides information on the educational system and transformation processes in Turkestan during the Russian Empire, as well as the negative and positive aspects of women's participation in these processes, based on the analysis of archival sources and contemporary press publications. This study discusses the role played by the Tatar and national enlighteners in the spread and development of Jadid ideas in the country, and the fact that women's education is one of the pressing issues in these processes. For this purpose, it contains interesting information about how the personnel policy carried out by the republic was carried out, and the fact that innovations in the field of education were banned by the Turkestan Guards Department because they contradicted the interests of the Russian Empire, but as the enlightenment movement developed further, Tatar teachers formed Jadid girls' schools in the country, and girls of local nationality were also educated.

MILLIY UYG'ONISH VA MA'RIFATCHILIK

Dilfuza Muxammadinovna Nasretidinova

Dotsent, t.f.n.

University of Business and Science

dilfuza.nasretidinova@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzl: Turkiston oʻlkasi, Rossiya imperiyasi, jadidchilik harakati, tatar maʼrifatparvarlari, xotin-qizlar maorifi, usuli jadid qizlar maktablari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Rossiya imperiyasi davrida Turkistonda taʼlim tizimi va undagi transformatsion jarayonlar handa ushbu jarayonlarda xotin-qizlarning ishtirokinining salbiy va ijobiy jihatlari haqidagi maʼlumotlar arxiv manbaalari va vaqtli matbuot nashrlari tahlili asosida yoritilgan. Ushbu tadqiqot oʻlkada jadidchilik gʻoyalarining yoyilishi va rivojlanishida tatar va milliy maʼrifatparvarlarning hamkorliklari qay darajada rol oʻynaganligi, ushbu jarayonlarda xotin-qizlar maorifi masalalari ham dolzarb masalalardan biri ekanligi kabi muammolar muhokama etiladi. Shu maqsadda respublika tomonidan olib borilgan kadrlar siyosati qay tarzda olib borilganligi, maorif sohasidagi yangiliklar Rossiya imperiyasi manfaatlariga zid boʻlganligi uchun Turkiston Muxofaza boʻlinmasi tomonidan taqiqlar boʻlganligi shunga qaramay, maʼrifatparvarlik harakatlari yanada taraqqiy etganligi, olkada usuli jadid qizlar maktablari tatar muallimalari tomonidan shakllantiilib mahalliy millat qizlari ham oʻqitilganligi haqidagi qiziqali maʼlumotlar oʻrin olgan.

НАЦИОНАЛЬНОЕ ПРОБУЖДЕНИЕ И ПРОСВЕЩЕНИЕ

Дилфуза Мухаммадиновна Насретдинова

Доцент, к.и.н.

Университет бизнеса и науки

dilfuza.nasretdinova@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туркестанский край, Российская империя, движение джадидов, татарские просветители, женское образование, женские новометодные школы.

Аннотация: В статье на основе анализа архивных источников и публикаций современной прессы представлена информация о системе образования и процессах его трансформации в Туркестане в период Российской империи, а также о негативных и позитивных аспектах участия женщин в этих процессах. В статье рассматривается роль татарских и национальных просветителей в распространении и развитии идей джадидизма в стране, а также то, что женское образование является одним из актуальных вопросов в этих процессах. В связи с этим приводятся интересные сведения о том, как проводилась кадровая

политика республики, и о том, что нововведения в сфере образования запрещались Туркестанским гвардейским управлением, поскольку противоречили интересам Российской империи. Однако по мере развития просветительского движения в стране татарские учителя создавали женские школы джадидского направления, в которых также обучались девушки местной национальности.

Kirish. XIX asr oxiri XX asr boshlari Turkiston xalqlari tarixida muhim o'zgarishlar davri bo'ldi. Bu davrda jadidchilik harakati vujudga kelib, maorif madaniyat, matbuot hamda ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarini qamrab oldi. Jadidchilikning zamirida xalqni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, sharqqa nisbatan ancha ilgari ketgan g'arb ma'rifati va madaniyatini targ'ib qilish, shu bilan birga rus hukumati bilan murosahamkorlik yo'lini tutib fursat tug'ilganda mustaqillikka erishish kabi ezgu maqsadlar yotardi[1.6-8]. Jadidchilikning asoschisi bo'lgan I.Gasprinskiy (1851-1914) o'z izdoshlari bo'lgan tatar ma'rifatparvarlari va o'lka taraqqiyparvarlari bilan faol harakat olib bordi. Turkiston jadidlari I.Gasprinskiyni o'z ustozlari deb bilishgan va uning ko'rsatmalari asosida ish olib borishgan. O'lkada jadidchilikning keng yoyilishi va shuhrat qozonishida I.Gasprinskiy va Mahmudxo'ja Behbudiyning hamkorliklari muhim o'rin tutgan [2.26-24] I.Gasprinskiy va o'lka taraqqiyparvarlari dastlabki ishni eski maktab mullalarining fanatizmi va jaholatparastligiga qarshi kurashdan boshladi. Chor hukumatining olib borgan ruslashtirish siyosatidan norozi bo'lgan tatar ma'rifatparvarlari, o'lkadagi musulmon maktablarini isloh qilish orali bu xavfdan qutilib qolish mumkin deb hisoblaganlar. Shu maqsadda usuli jadid maktablarini ochib, mahalliy aholi bolalarini o'qitish ishlarini olib borganlar. Tatar ma'rifatparvarlari bu ishlar bilan cheklanib qolmay, turkiy xalqlarni birlashishi hamda mustaqillik uchun kurash g'oyalarini ilgari surish bilan birgalikda, xotin - qizlar maorifiga ham alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaganlar. Chunki ayol millat farzandlarini tarbiyalovchi va ulg'aytiruvchi zot bo'lib, uning ilmi va yuksak zakovat egasi bo'lishi barkamol avlodni shakllanishida yuqori o'rin tutishini tushunganlar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. V.Nalivkin va M. Nalivkinalarning asarlarida mahalliy o'troq aholi ayollarining urf-odatlarini, maishiy hayoti haqida so'z yuritilgan. [3.220]. Senator graf K.K.Palanning Turkistonda o'quv ishlariga bag'ishlangan hisobotida, ayni paytda o'lkada mavjud mustamlaka maorif tizimi, xususan qizlar gimnaziylarining tashkil topishi va ularning o'sha davrdagi ruslashtirish siyosatini olib borishdagi ahamiyati haqida qiziqarli tarixiy faktlar keltirilgan.[4.113-115] K.Ye. Bendrikovning asarida Turkistondagi imperiya

mustamlakachiligi va sovetlar davridagi maorif tizimi haqida to'xtalib o'tilgan. Mazkur tarixiy asarda jadid maktablari va ularning o'qitish uslublari haqidagi e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan.[5.155-158] Yuqorida keltirilgan asarlarning barchasida Turkiston ayollarining ijtimoiy hayotdagi tutgan o'rinlari va o'lkada tatar-boshqird ma'rifatparvarlarining faoliyatiga doir qiziqarli ma'lumotlar keltirilsada, bevosita tadqiq etilayotgan mavzuga oid ma'lumotlar uchramaydi.

Natija va muhokama. «Butun insoniyat olamining tirikchiligi yolg'iz xotunlar soyasidandir deb aytsak shoyad xato qilmagan bo'lurmiz, xotunlar butun olam insoniyatining onasidirlar: payg'ambarlar, rasullar, podshohlar, olimlar, adiblar va shoirlar hammasi shul muhtaram volidalarning bolalaridirlar» [6.1914]. Tatar ayollarining o'rtasida ilm-fanga bo'lgan yuksak muxabbatni ortishiga sabab, millatni o'zini orasida shakllangan ma'rifatchilik g'oyalari, qolaversa, o'sha davrda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohadagi o'zgarishlar turtki bo'lgan deyishimiz mumkin. Usuli jadid maktablarida tatar ma'rifatparvar ayollarining faoliyat ko'rsatishlari o'sha davrning progressiv hodisalaridan biri bo'lib, »Turkiyada bunday holatni dindand qaytish deb hisoblab qattiq jazoga mustahiq etilgan [7.79].

Tatar ayollarida boshqa musulmon xalqlaridan farqli o'laroq, ma'rifatga intilish, shijoatlilik, tashabbuskorlik kabi hislatlarni kuzatishimiz mumkin. «Bizning erlarimiz har xil ilmlarni o'rganadi, turli maktablarga qatnaydi. Hamma kitob va gazetalarni o'qiydi, ma'rifat mevalaridan bahramand bo'lib, aqlarini o'stiradi va ruhlarini shodlantiradi. Biz tatar ayollari har qanday ta'lim va tarbiyadan mahrummiz, yilt etgan umidsiz va tasallisiz umrimizni g'am-g'ussa ichida, oxiri-keti ko'rinmaydigan tashvishlar bilan o'tkazishga majburmiz». Bundan ko'rinib turibdiki, tatar ayollari o'rtasida ma'rifatga intilish hissi kuchli bo'lib, boshqa mazlumalarni (Rossiya imperiyasi hukmronligi ostidagi turk - musulmon dunyosi nazarda tutilmoqda D.N.) ham ilmga bo'lgan qiziqishlarini ortirishda dastlabki ko'makchilardan bo'lganlar deyishimiz mumkin. Turkistonda maorif soxasining taraqqiy etishida tatar ma'rifatparavar ayollarining tutgan o'rinlari salmoqlidir. Usuli jadid maktablarida o'qitish uslubi ancha sodda va oson bo'lib, o'quvchilar qisqa muddat ichida savod chiqarib, fanlarni tez o'zlashtirish bilan birgalikda hunar ham o'rganishgan. Bu esa mahalliy aholini bolalarini yangi usul maktablariga ommaviy ravishda berishlariga sabab bo'lgan.

Tatar ayollari o'lkada faol harakat olib borib, mahalliy aholi qizlarini ilimli bo'lishida, qolaversa, ma'rifiy va madaniy ishlarni muvaffaqiyatli olib borilishida muhim rol o'ynaganlar. Manbalarning guvohlik berishicha, Turkiston general-gubernatorligining ma'muri 1913 yil 4 yanvardagi hisobotida, Perovsk uyezdining Julek uchastkasiga qozoq, sart(o'zbek), qirg'iz bolalarini o'qitish maqsadida 1911 yilning yozidan Ufaning «Galiya» madrasasidan yosh tatar

o'qituvchilari kelgan bo'lib, usuli jadid bo'yicha maktablar ochib unda aholi bolalarini o'qitganliklarini ta'kidlab, bunda o'quvchilar arifmetika, geografiya, tarix, tatar tili grammatikasini va qur'on o'qish bilan birgalikda, shariat qonunlarini ham o'rganayotganliklarini aytgan[8.3].

Yangi o'qitish uslubi afzalliklari haqida shuni ta'kidlash joizki, eski maktablarda toliblar kitoblarni yod olish orqali ta'lim olishib, mazkur kitoblar qanday maqsadlarda yozilganligidan bexabar bo'lganlar. Eski maktablardagi o'qish va o'qitish uslubi zamon talablariga javob bermas, shogirdlar 4-5 yil o'qib xatto arab tilini ham yaxshi o'zlashtira olmaganlar. Vaholanki, ta'lim berayotgan mudarrisning xam bilim sa'viyasi va dunyoqarashi juda past darajada bo'lgan. Fikrimizning dalili sifatida A.Xo'jayevning quyidagi fikrini keltirishimiz mumkin » Madrasa deb yuritilgan adolatxonalarimizda tarbiya ko'rub mulla bo'lg'on afandilarimizda fikr va idrok shul darajada pastdirki, bu afandilar ila milliy va ijtimoiy mavzulardan so'z gapirmak hozirgi vaqtda imkon xorijidandir» [9.2].

Davr esa shiddat bilan rivojlanib, asriy qoloqlikdan tezroq chiqib, taraqqiyot sari odimlash lozimligini taqozo etardi. Usuli jadid maktablari zamon talablariga javob berib, unda diniy va dunyoviy bilimlarni qo'shib o'qitilishi, oldinga qo'yilgan yuk-sak maqsadlarni amalga oshirishdagi dastlabki qadamlardan biri bo'ldi. Tatar o'qituvchilari badavlat qozoqlar yoki qirg'izlar tomonidan yollangan bo'lib, ular bolalarga uch oy davomida 100 so'm pul va zakot (badavlat kishilar o'z molidan kambag'allar uchun beradigan ulush D.N.) evaziga bilim berishgan. Har yili yoz oylarida tatar o'qituvchilaridan 40 nafarga yaqini Julek uchastkasiga kelishgan. Bunday muallimlar qatorida tatar ayollari ham bo'lib, mahalliy aholi qizlarini ilm va hunarli hamda, ma'rifatga bo'lgan qiziqishlarini ortishida ularning xizmatlari borligini aytib o'tish lozim deb topdik. Bizning fikrimizcha tatar ma'rifatparvar ayollarining Turkiston o'lkasida faoliyat olib borishlarining asosiy sabablaridan biri shuki, islom dinida har bir muslim yoki muslima biror ilmni o'rganib uni bilmaganlarga o'rgatishi lozim, aks holda, u gunohkor hisoblangan.

Bundan ko'rinib turibdiki, tatar taraqqiyparvar ayollari zimmasida o'lka ayollarini ma'rifatli holda ko'rish hamda, ularni o'z haq-huquqi uchun kurashishga da'vat etishdek sharaflari va mashaqqatli vazifalari turgan. Shunday ezgu maqsadlar yo'lida kelgan muallimlar haqida batafsil to'xtalib o'tamiz. Salatepa stansiyasi yaqinida qozoq Soatboy uyida u tomonidan yiliga 400 so'm miqdoridagi pulga yollangan tatar muallimasi yashab, aholi qizlarini o'qitish bilan shug'ullangan[10.3]. Toshkent temir yo'lining Salatepa stansiyasida badavlat qozoq Qobul Erkaboyev tomonidan yollangan Munavvara Rashitova istiqomat qilib, 4 nafar qizni oyiga 25 so'm pul evaziga o'qitgan[11.22]. Bogorodsk qishlog'idan uzoq bo'lmagan ovulda muallima

Bibi Maryam Ishoqova ham o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullangan[12.32]. Qozon guberniyasidan kelgan Gafiya Xismatullina Sagetdinova 15 nafar qizni, Menglijamol Shigabutdinova 15 nafar qizni, Roziya Sagadiyeva Dautova esa 10 nafar qizlarni oilaviy axvoliga qarab 5 tiyindan 20 tiyingacha o'qitishgan [13.10-11].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'qitish uchun olinadigan haqlarning turli darajada ekanligi mahalliy aholi manfaatlariga mos kelib, ba'zan sharoiti og'ir oila bolalarini bekorga bilim berish hollarini ham uchratishimiz mumkin. Bu holat shundan dalolat beradiki, tatar muallimalari o'lkaga zimmalaridagi islohotchilik vazifalarini bajarish xamda, tili va dini bir-biriga mushtarak bo'lgan mahalliy ayollarga «yordam qo'li» ni cho'zish maqsadida kelganlar diyishimiz mumkin. Mahalliy ayollarni ilm oladigan maskanlari ya'ni, maktablari bo'lishini xohlab tatar ayollari gazetalarga maqolalar berganlar. Asli kasbi muallima bo'lgan podsho xonim Jalilova mahalliy ayollarni achinarli hayotini o'zgartirish davri kelganligini, vaqtlarini behuda ishlarga sarflab, ilm olishdan bebahra qolayotganliklarini ta'kidlab, xotin-qizlar uchun maktablar ochib berishlarini istab maqolalar yozgan [14.1914].

Olib borilgan sa'yi-harakatlar natijasiz ketmadi, Turkiston o'lkasining barcha hududlarida xotin-qizlar maktablari ochilib, unda tatar muallimalari faoliyat ko'rsatishgan. Shunday maktablardan biri To'qmoq shahrida ham ochilgan bo'lib, unda o'qish va o'qitish ishlari ancha rivojlangan edi. Tatar boylari maktablar qurilish ishlariga ham homiylik qilishgan. To'qmoqdagi o'g'il bolalar maktabida o'z paytida Ufadagi «Galiya» madrasasini Muso afandi Asqarov mudarrislik qilgan. Qizlar maktabida esa uning rafiqasi Ravzatul Hayot xonim muallimalik faoliyati bilan shug'ullanib, bu maktabda 5 sinflik dastur asosida ta'lim berilib, darslar usuli jadid bo'yicha olib borilgan. 3-sinfdan boshlab qizlarga hunar o'rgatilgan. Har olti oyda ot-onalar ishtirokida imtihon bo'lib, bunda o'quvchilar bilim va hunarni qay darajada o'zlashtirib olganliklari sinovdan o'tkazilgan [15.1914].

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, maorif sohasida tatar ma'rifatparvar ayollarining faol harakatlari natijasida, mahalliy aholi xotin-qizlarining bilim sa'viyalari ortib ularning turmush tarzlari keskin o'zgarishiga sabab bo'lgan. Usuli jadid maktabi Toshkent shahridagi Skobelevskiy uyezdining No'g'ay mahallasida ham ochilgan bo'lib, u yerda Maymuna Fattohiddin qizi Axtamova o'n yetti yil mobaynida aholi qizlarini o'qitish ishlari bilan shug'ullanib kelgan. Uning tinimsiz va mashaqqatli mehnati tufayli minglab aholi qizlari diniy va dunyoviy bilimlarni egallashgan. Qizlar maktabi rasmiy ravishda ochilgan bo'lsada, o'qiydigan muqim bir binoni yo'qligi sababli, Maymuna xonim o'ziga yashash uchun ajratilgan xonada 40-50 nafar qizlarni juda qiyin sharoitlarda o'qitib kelgan. Bu shijoatli va fidokor muallimadan mamnun aholi o'z'aro kelishgan holda, mahallaning badavlat kishilaridan bo'lgan

Zarif xoji Axmadjonov hisobidan maktab binosini bitkazib berish majburiyatini olgan, 1916 yilning kuziga kelib qurilish ishlari yakunlangan. O'quvchilar keng va yorug'xonalarda bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishgan [16.1916].

Tatar muallimalari o'lkada usuli jadid maktablarini yanada ommaviylashishi uchun bor imkoniyatlarini ishga solib, aholini yangi o'qitish uslubi afzalliklari haqida doimiy ravishda xabardor etib borganliklari tufayli, qizlar maktablarida o'quvchilar soni ortib borgan. Shunday muallimalardan yana biri Komila xonim Muzaffariyadir. U yoshligidan bilim olishga qiziqqan bo'lib, Ufadagi qizlar maktabida ta'lim olgan. Uni ilmga bo'lgan qiziqishi shu qadar kuchli ediki, xatto o'zi mustaqil ravishda rus tili va diniy bilimlarni o'rgangan. Komila xonim Muzaffariya o'z faoliyatini uchinchi sonli maxsus qizlar maktabida boshlab, unda to'rt yil ishlagan. 1909 yilda Zarif Muzaffariy bilan turmush qurgandan keyin ikkovlari turli maktablarda o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanib kelishgan. 1911 yili ular Turkistonga kelib, Qo'qondagi qiz va o'g'il bolalar maktablarida faoliyatlarini davom ettirishgan. Komila xonim xushtabiat, kamgap, yumshoq ko'ngil ayol bo'lib, o'z kasbini chin dildan sevib ardoqlab kelgan.

U maktabga doim erta kelib, shogirdlariga muammoli masalalarni hal etishda ko'maklashib, yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni tezda bartarafetib, o'quvchilarga ilmni mehr bilan o'rgatgan. Komila xonim ajoyib ovoz sohibasi ham bo'lib, milliy kuylardan o'quvchilarga saboq berib kelgan. U bo'sh vaqlarini kitoblar mutolaa qilish hamda matbuotga maqolalar yozish bilan o'tkazar, «El» nomli gazeta muxbiri shu bilan birga «Suyum beka» jurnalining ta'sis etilishi va keyingi faoliyatining davom etishida jonbozlik ko'rsatgan mualliflardan biri hisoblangan[17.1916]. Tatar ma'rifatparvar ayollari tomonidan bunday ishlarning olib borilishi o'lkada noshirlik ishlarining jonlanishiga turtki bo'lgan. Keyinchalik esa jurnalistika sohasining bilimdonlari bo'lgan dastlabki mahalliy muxbir ayollarining yetishib chiqishiga sabab bo'lgan.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, tatar ma'rifatparvar ayollarining o'lkada olib borgan faol harakatlari natijasida, mahalliy ayollarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshishi hamda, ular orasidan har sohaning ilg'or bilimdonlari yetishib chiqishi va o'z haq-huquqi uchun kurashish, qat'iyatlilik, ma'rifatga bo'lgan intilish kabi hislatarni uyg'onishiga olib keldi deyishimiz mumkin..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Косимов Б. Миллий уйғониш. Т, Маънавият, 2002, -Б. 6-8.
2. Алимова Д, Рашидова Д. Махмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури.Т., 1999, -Б. 26-27
3. Наливкин В., Наливкина М. Очеркь быта женщины оседлого туземного населения. Казань.: Типография императорского Университета. 1886. -С. 220.

4. Учебное дело. Отчет ревизии Туркестанского края по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером Графом К.К. Паленомъ. С.Петербург.: Сенатская типография, 1910. –С. 113-115.

5. Бендриков К.Е. Очерки из истории народного образования в Туркестане (1865-1924). – Москва: Из-во. Акад. педагог. наук, 1960. – С. 155-158.

6. Фатхиддинзода З. Ҳуқуқи нисвон // Садои Туркистон, 1914, 12 ноябр

7. ВамбериХ. Маърифат йўлидаги уйғониш // Тафаккур, 2000, 2-сон, 79-бет.

8. ЎзРМДА-И-1-жамъарма, 27-рўйхат, 148-иш, 3-варақ

9. Муллаларимизда даражаи фикрия // Садои Туркистон,1914, 55-сон, -Б.2

10. ЎзРМДА-И-1-жамғарма, 27-рўйхат, 148-иш,3-варақ ва орқаси

11. ЎзМДВА-И-1-жамғарма, 1-рўйхат,148-иш, 32-варақ

12. ЎзМДВА-И-1-жамғарма, 1-рўйхат,148-иш, 22-варақ

13. ЎзРМДА-И-17-жамғарма,1-рўйхат, 15374-иш, 10-11-варақ ва орқаси

14. Хўжаев А. Хонимлар товуши // Садои Туркистон,1914, 11 июл

15. Тоторлар // Садои Туркситон, 1914, 29 июл

16. Тохирий И. Тошканд // Вақт, 1916, 3 январ

17. Сагидов А. Марҳума Комила хоним Музаффария, Сўз, 1916, 26 июн